

ZARAFSHON MILLIY TABIAT BOG'IMIZ

B.B.Eshquvvatov

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti

«Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası»

filalogiya fanlari doktori (Phd), dotsent

E.B.Xolmanov

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti

«Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası»

Mustaqil izlanuvchi (Phd)

Annotasiya: Ushbu maqolada Zarafshon milliy tabiat bog'ida mavjud biologik xilma-hillik, bog' hududida kuzatilayotgan ekologik muammolarning yuzaga kelishida tabiiy va antropogen tasir omillar ta'siri. Bog' ekotizimini kelajar o'zgarishlarini oldini olish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy tabiat bog'i, bioxilma-xillik, quriqxona, ekotizm, Qizil kitob, to'qayzor, daryo suv sathi.

Atrof muhitni muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa tabiiy turlarni, o'z tabiiy yashash muhitlarini saqlab qolish, turla populyatsiyasi saqlab qolishning asosiy omili muhafa etiladigan hududlar muhim ahamiyatga ega.

Zarafshon milliy tabiat bog'i 1948 yilda sobiq sovet davrida o'rmon (leysnoy) xo'jaligi sifatida tashkil etilgan. 1975 yilda qo'riqxona sifatida qayta tashkil etilib, 2018 yilda Zarafshon milliy tabiat bog'iga aylantirilgan ushbu hudud bugungi davrga kelib yashil taraqqiyotning yangi talablariga moslashish va yanada takomillashish bosqichida turibdi. Bog' hududining suv bilan ta'minlanishi Zarafshon daryosining suv sathining yillik tebranishiga bog'liqdir.

Bog' Samarqand viloyatining Jomboy va Bulung'ur tumanlari hududida joylashgan bo'lib, Zarafshon daryosining O'zbekiston qismining ong qirg'og'li bo'ylab to'qay landshaftini qamrab olgan. Umumiy er maydoni 2426.2 gektar.

Bugungi kunda Zarafshon milliy tabiat bog'ida 300 ga yaqin o'simlik turlari o'sadi, shulardan 10 ga yaqini "O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan. Milliy tabiat bog'ida baliqlarning 18 turi, suvda va quriqlikda yashovchilarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, qushlarning 218 turi, sut emizuvchilarning 26 turi mavjud. Bu hayvonlarning ham 10 ga yaqin turlari "O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan. Milliy bog'dagi Buxoro bug'usi Markaziy Osiyo uchun endemik hisoblanadi. Hozirgi kunda Zarafshon milliy tabiat bog'idagi ochiq muhitda yuzdan ziyot Buxoro bug'ulari yashamoqda. Bog'ning 6.5 gektar o'ralgan joyda (valerada) ularning 40 yaqini alohida

parvarish qilinmoqda.

Takidlash joizki, iqlim o'zgarishlari allaqachon O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda-haddan tashqari ob-havo hodisalari, qirg'oqchilik, tuproq va suv resurslari degradatsiyasi kuchaymoqda. Urbanizatsiya sur'atlari oshib borayotgani va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik sharoitida hududlarda ushbu xavflarga nisbatan zaiflik darajasi ortmoqda. Asosiy maqsadimiz-bog xududini barqaror va iqlimga moslashuvchan rivojlanish vositasiga aylantirishga xizmat qiluvchi inavatsion, tizimli yondashuvlarni tadbiq etishdan iborat. Shuningdek xar-xil hatarlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirib zaiflikni kamaytirish va o'zgaruvchan iqlimga moslashuvchanlikni oshirishda samarali loyihalarni tadbiq etish lozim.

Ayni paytida cho'llanish jarayoni dunyoning 100 dan ortiq mamlakati uchun jiddiy ekologik tahtidga aylanmoqda. Yelarning tanazulga uchrashi va iqlim o'zgarishi oqibatida kuchayib borayotgan qirg'oqchilik har yili taxminan 55 million kishining hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognozlariga ko'ra, 2050-yilga kelib sayyora aholisining 75 foizi qirg'oqchilik xafi ostida qolishi mumkin. Hozirgi vaqtda O'zbekiston xududining 70 foizdan ortig'i-ya'ni 31 million gektardan ziyod maydon-qirg'oqchil va yorim qirg'oqchil hududlardan iborat. Bu erlarda sho'rlanish, qum ko'chishi va changli bo'ronlar kabi ekologik muammolar yez-tez kuzatilmoqda va buning oldini olish uchun yashil hududlar, daraxtlar ekish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarixdan ma'lumki ota bobolarimiz bitta daraxt qiriqsa o'rniga 10 dona daraxt ekishgan.

Zarafshon milliy tabiat bog'ida bugungi kunda ba'zi jiddiy ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Jumladan, daryo suv sathining yildan yilga pasayishi, to'qayzorlar maydoning qisqarib borishi, daryo o'zanidan noruda foydali qazilma boyliklarining qazib olinishi, ichki buloq suvlarining noqonuniy foydalanish, antropogen omillar ta'sirida chorva mollarining o'tlatilishi va boshqalar.

Bugungi global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari sharoitida mamlakatimizda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil maydonlarni ko'paytirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ona tabiatimizda, ekologiyada va yashab turgan muzitimizda-sayyoramizda ma'lum bir xududda bo'layotgan ekologik muammo boshqa hududlarga ta'sir qilmay qolmaydi. Buni tajribada misol uchun Orol muammosi va boshqa hududlarda ham kuzatishimiz mumkin.

Shuning uchun Zarafshon milliy tabiat bog'mizni asrab avaylashni va kelajak avlodlarga bor holicha ytkazish fuqorolik burchimizdir va quydagi ishlarni amalga oshirish zarurdir.

Uzoqqa bormaylik yaqin tarihdagi Zarafshon milliy tabiat hududidagi 4-5-6-7-bo'limlarda ilmiy-monitoring natijalari va chegara hududdagi Qarapch, Ashirto'p,

Mo'g'ol, Qumqishloq, Beshkal va boshqa qishloqlarda muqim istiqomat qiluvchi aholi bilan muloqat-suhbat davomida olingan ma'lumotlarga tayanib quydagilar aniqlandi. 1990 yillargach Bulung'ur va Jomboy tumanlari aholisining ma'lumotlariga ko'ra Zarafshon daryosining o'ng qirg'ida juda qalin o'rmonzor bo'lib daryoning chap qirg'og' umuman ko'rinmas darajada qalin o'simlik dunyosi bilan qoplangani hozirgi kunda faqat ma'lumotlarda va aholidan eshitishimiz mumkin bo'lib qoldi.

Hozirgi kunda Zarafshon milliy tabiat bog'ining jami yir maydoni 2426,4 ga bo'lib, 7-ta bo'limdan iborat. Bog' hududida antropogen omollar ta'siridan aziyat chekmoqda va quydagilar ilmiy-monitoring natijasida aniqlanmoqda. Bog' hududlarda chorva mollarini uchramaslikning umuman iloji yo'q 1-7- ch bo'lingacha chorva mollarini o'tlatish davom etmoqda. Chegara hududi aholisi tomonidan darah kesish,shoh-shaba olish davom etmoqda. Eng katta muammo 4-5-6-7- bo'limlarda ayrim shaxslar tomonidan 300-gadan ortiq yer maydonlarida dehqonchilik maqsadida Zarafshon milliy tabiat balansidagi yerlarda bir-necha 10-yillardan buyon o'z manfatlari yo'lida foydalanib, shaxsiy tomorqaga aylantirib, chorva mollarini boqib, darahatlarni kesib, yong'in chiqarish holatlari kuzatilib kelmoqda.

O'zbekistonning eng noyob lanshaftlaridan biri to'qay yoki qayir o'rmonlari hisoblanadi. To'qaylar O'zbekistonning eng yirik daryolari qirg'oqlarida joylashgan toza havo bilan ta'minlovchidir. Qayir o'rmonlari daryoni ifloslanishdan saqlab, suvning tozaligini ta'minlaydi hamda tabiatda namlik almashinuvida asosiy ro'l o'ynaydi. Yaqin vaqtilarda to'qaylar katta maydonlarni egallab kelgan, lekin turli sabablarga ko'ra ularning maydoni taxminan 10 foizga kamayib ketdi. To'qay o'rmonlari Butunjaxon yovvoyiy tabiat fondi (WWF) tomonidan jiddiy muxofazaga muxtoj ekologik hududlarning «GLOBAL-200» ro'yhatiga kiritilgan.

Buxoro bug'usi (xonguli) Markaziy Osiyouchun endemik hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki u faqat Markaziy Osiyoda yashaydi va boshqa xech qayirda topilmaydi. Turkmaniston, Tojikiston,Qozoqiston va Afgonistonda uchraydi. Xongul nisbatan yaqin vaqtilarda to'qay o'rmonlarda keng tarqalgan edi, endilikda noyob hayvonlar qatoriga kirdi. Buxoro bug'ulari Xalqaro qizil ro'yxatga va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha konvensiyaga kiritilgan. Ko'rinib turibdiki, Milliy tabiat bog'i ertangi avlod ekologik barqarorligini ta'minlashda juda muhim. Hozirdan iqlim o'zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslarining toboro taqchil bo'lib borayotgani barqaror rivojlanishga kuchli ta'sir etmoqda. Ekologiya va atrof-muxitni asrash, suv taqchilligini oldini olishbundan buyon ham dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Milliy bog' xududining axoli yashash punktlari bilan chegaralarni to'siqlar bilan o'rab, xududga nazorat kameralari o'rnatish, qonunbuzarlarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qisqach qilib aytganda Zarafshon milliy tabiat bogining tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masaladir. Bog' balansidagi yirlardan noqonuniy foydalanib kelayotgan shaxslarga

qonun doirasida ma'lum bir muddatga, manzarali va ko'p yillik ixota daraxtzorlari barpo etish uchun ijaraga berish lozim. Birinchi galda ehtimoliy karupsiyani oldini ilish maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ngra ijara to'lovlarini Milliy bog' hisob raqamiga to'liq o'tkazilib va tushgan mablag'larni qonun doirasida faqat bog' fauna-florasi rivojlanishi yo'lida sarflansa bog' 3-5 yillarda 20-25 yil oldingi holatiga qaytib, gurkirab rivojlanishiga ishonchim komil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ravshanov Zarafshon vodiysining to'qay lanshaftlari va ularni muhofaza qilish. «O'zbekistonning noyob lanshaftlari» ilmiy to'plam. Samarqand. 1993 y.
2. L.A.Alibekov,S.A.Nishonov Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ras'ional foydalanish.Toshkent., «O'qituvchi».1983.
3. A.A.Abulqosimov O'rta Osiyoning to'qay lanshaftlari va ularning xususiyatlari. «O'zbekistonning noyob lanshaftlari», ilmiy to'plam. Samarqand. 1993 y.
- 4.L.A.Alibekov Inson va tabiat,darslik Samarqand,SamDU nashriyoti.2020-yil 400 bet.
5. N.A. Gvozdes'kiy Osnovni'e problemi' fizicheskoy geografii. M.,Vi'shaya shkola.1979.
- 6.Sh.S.Zokirov Kichik hududlar tabiiy geografiyasi. T.,Universitet.1999.
7. Zokirov Sh.Antropogen va amaliy lanshafshunoslik.Toshkent.1998.
- 5.F.N.Mil'kov Fizicheskaya geografiya: sovremennoe sostoyanie,zaekonomerniosti,problemi'.Voronej.1981.
- 6.A.M.Trofimov.,Shari'gin M.D.Obshaya geografiya:vaproshi' teorii I metodologii.-Permi',2007.
- 8.A.T.Azimova,B.B.Xaskin Ekologiya-M.;1998,-455s.
- 9.P.Baratov Tabiatni muhafaza qilish.Toshkent,O'qtuvchi,1991.
- 10.U.R.Beknazarov,Yu.B.Novikov.Oxrana prirodu T. «O'qituvchi»,1995.
- 11.Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha ramkaviy konvensiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Birinchi Milliy axboroti.Toshkent.,1999.
- 12.A.A.Gorelov Ekologiya.-M.: «S'ynt»,1998
- 13.N.Yu.Gladkiy.,S.B.Lavrov.Global'naya geografiya.-M.:Drafa,2002.
- 14.Danilov.J.Markovich Sos'al'naya ekologiya.M.: «Prosvechenie»,1991.
- 15.T.A.Damina. Ekologiya«S'ynt»,prirodopol'zovanie«S'ynt»,okrujayuyiaya sreda M.,Aspekt Press.1996.-143s.
- 16.I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sagasi:xavsizlikka tahtid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T.:O'zbekiston.1997.
- 17.Krasnaya Kniga O'zbekiskoy SSR.Tom I.Toshkent,. «Fan»,1983.
18. Krasnaya Kniga O'zbekiskoy SSR.Tom II.Toshkent,. «Fan»,1984.
- 19.Notsanalniy doklad.O sostoyanii okrujayushiy prirodnoy sredi i ispolzavaniy prirodniy resursov v Respubliki O'zbekistan (2001g.).T.CHinor ENK,-2002.
- 20.A.Nigmatov.Ekologiya nima?-T,2002.
- 21.Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabr qonuni// O'zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent., «Adolat»,1993.
- 22.X.Tursunov.Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent, «O'zbekiston»,1997.
- 23.S.A.To'xtaev.Ekologiya. Toshkent., «O'qituvchi»,2001.-144bet.
- 24.R.T.Pirnazarov,T.S.Sobirov (2002). Iqlim o'zgarishi sharoitida suvga bo'lgan talabchanlikning ortishi va uning echimlari.Academic research in educationalsciences,3(5), 404-408.